

**OZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yiliga
bag'ishlangan**

TAFAKKUR VA TALQIN

Magistrantlar va iqtidorli talabalarning
ilmiy maqolalar to'plami

BUXORO - 2019

O'quvchi kompyuterda yozishni o'rganganda bevosita so'z ning fonetik tarkibini anglaydi. Yozma nutqda imloviy xatoliklarni oldini oladi. Texnika bilan ishlaganda o'quvchining kreativ fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi- o'qituvchi – ota- ona munosabatlarini birlashtiradi.

Kompyuter barcha xonadonlarga kirib bormoqda . O'qituvchi bemalol uyga vazifa tarzida topshiriqlar ham berishi mumkin.

Eshitganidan, ko'rganidanda , o'zi mustaqil bajargada o'quvchiga ko'proq layoqat hosil bo'ladi.

Bugun zamon o'quvchining nafaqatqo'lda yozish ko'nikmasi balki kompyuterda ham yozishni o'rganishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida bu ko'nikma bevosita o'qituvchi yordamida boshlang'ich sinfdan o'rgatilmaydi ammo bolaning ota- ona ko'magida kompyuterda ham yozish ko'nikmasini rivojlantirib borish zarur. O'qituvchi darsning multimedia vositalari bilan dars o'tganda agar o'quvchida bunday ko'nikma bilim bo'lmasa o'quvchi bu operatsiyalarni o'zi bajarolmaydi , natijada o'qituvchi berilgan o'yin shartlarini o'zi bajaradi. O'quvchi har bir ishni ma'suliyat bilan o'zi bajarsa ishning mohiyatini tushunib oladi . Undagi tushuncha bir umrga shu o'yinni bajarishdagi zavq, ma'suliyat, muvaffaqiyatli natijasi bilan toshga o'yilganday qotadi.

O'quvchining klaviyaturada mustaqil so'zlarni yozishni o'rganishi uning yozma nutqini ham yanada rivojlantiradi. Barmoqlar sezgilari bilan birgalikda so'zlarning yozilishini ham o'quvchi yaxshi eslab qoladi. Ko'chrish davomida tinish belgilarini ham ma'lum masofada qo'yilishini ko'rib ,eslab qoladi. Ayniqsa , kompyuterda ishlash o'quvchida yuqori motivatsiya hosil qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning ona tili haqida bilimlariva nutq muomala layoqatlarini shakllanishiga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar albatta chegaralangan vaqtda ,ma'lum maqsad asosida o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi nazoratida shug'ullansa , uyda albatta ota- ona nazorati darkor. Chunki electron axborot tizimi keng ma'lumotlarga ega. Agar o'quvchi kompyuterning ahamiyatini yoshlikdan anglab borsa , turli o'yinlarga berilmaydi. Har bir qiladigan harakatining manfaatga mosligini tekshirib ajratib oladi. O'quvchining texnika, global tizim imkoniyatlarini yoshlikdan tanishtirib borsak, ularning qiziqishlari ham ortib ,tashqi kuchlar ta'siriga immunitet hosil qilib boriladi.

Bugun o'quvchilarimiz turli sohalarda faol va peshqadam. Niholni yoshlikdan dehqon zargar kabi kesib , bog'lab tik o'sishi uchun tirkak qo'yadi. Kerakli vaqtda albatta suv beradi. Nihollar shu suv bilan gurkirab , yashnab ketadi. Farzand ham xuddi nihol kabidir, uning yaxshi poydevori yoshlikdan beriladigan bilimdir. Bolaning yoshlikda olgan bilimi , kelajak muvaffaqiyatlari sarchashmasidir.

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutqlari "Buxoroga tashrif" Xalq so'zi 2019 12 son
2. Umuta'lim fanlari metodikasi jurnali 2018 iyun 6 son "Multimedia texnologiyalari" M Saydahmedova
3. Kichik maktab yoshidagi bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari va metodologiyasi. Fan va texnologiya. T.2013.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Nodirabegim Boymurodova, BuxDU - magistr

Kalit so'zlar: *kitobxonlik, kitobxonlik madaniyat, hikoya, epik janr, nasriy asar, darslik, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, hadis.*

Ключевые слова: *чтение, культура чтения, история, эпический жанр, прозаические произведения, учебник, нравственное воспитание, ассаламуалейкум, и ассалом, хадис.*

Key words: *reading, reading culture, story, epic genre, prose work, textbook, assalomu alaikum, vaki assalom, hadith.*

Аннотация: *Мақоллада boshlang'ich sinf o'quvchilarida hikoya janri orqali kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В статье представлена информация о формировании читательской культуры через жанр рассказа у учеников начальных классов.*

Annotation. The article provides information on the formation of reader culture through the story genre in primary school pupils.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarimizda ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun bugungi kun o'qituvchisi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga kunning dolzarb yangiliklaridan xabardor bo'lishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi va ayni damda ushbu texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq eta bilishi juda muhimdir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon eta oladigan erkin ishritirokchiga aylantirish kun tartibidagi eng muhim masalalardan biridir. Buning uchun esa ularning eng yaqin do'sti kitob bo'lmog'i joizdir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Adabiyot va san'at madaniyatini rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasida yoshlar masalasiga, ayniqsa, ularning ma'naviy dunyosini boyitishga katta e'tibor qaratdi. Shu bilan birga "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori ham bu boradagi dasturul amal bo'ldi. Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi c esa bu borada keng ko'lamli islohotlarni jadal sur'atlarda amalga oshirishga zamin yaratdi. 2017-yil 13-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ 3271- sonli Qarorining qabul qilinishi va uning doirasida belgilangan vazifalar ham yurtimizda kitob mahsulotlarini chop etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida katta o'zgarishlarga zamin yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mamlakat bo'ylab "Yosh kitobxon", "Eng faol kitobxon guruh", "Eng kitobxon oila" tanlovlarining tashkil qilinishi va g'olib kitobxonlar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi buning isbotidir. O'quvchilarda kitobga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirishda oila, maktabgacha ta'lim muassasalari bilan bilan bir qatorda maktab juda muhim ahamiyatga ega. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga e'tibor beradigan bo'lsak, ular darslikda berilgan hikoya, ertak, qissa va hatto romandan parchalarni ham juda katta qiziqish va sinchkovlik bilan mutolaa qiladilar. Shulardan biri hikoya janridir.

Boshlang'ich sinflarda uchraydigan badiiy asar janrlaridan biri bu hikoyadir. Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar bo'lib, mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. O'zbek hikoyachiligi juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar - "Kultegin" va "To'nyuquq" bitiklarida bayon qilingan voqealardagi ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" dostonining beshinchi maqolotidagi "Hotami toy" hikoyati, yigirmanchi maqolotidagi "Ul qul hikoyati", "Sabbai sayyor" dostonidagi "Yetti musofir" hikoyalari ham bu janrning uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda esa bolalar adabiyotining ko'plab yozuvchilari hikoya janrida qalam tebratayotganini uchratamiz. Ulardan biri Safar Barnoyevdir. Safar Barnoyev 1938-yilning 6-mayda Buxoro yaqinidagi Dilkusho qishlog'ida tavallud topgan. 1959-yil o'rta maktabni tugatib, bir muddat qurulishda ishlagan. Harbiy xizmatdan qaytgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika bo'limida tahsil oladi. Adib "Kamalak" nashriyoti, "Gulxan" jurnalida xizmat qiladi. Safar Barnoyev taniqli bolalar yozuvchisi bo'lib, ko'pgina she'riy, nasriy asarlar muallifidir. Uning bir qancha hikoyalarini boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida uchratamiz. 1-sinf O'qish darsligida "Chiroyli salom", 3-sinfda "Bobonur", "Sinfdan tashqari o'qish kitobi"da "Oq laylaklar", "Dala oftobi" kabi hikoyalarni ko'rishimiz mumkin.

S.Barnoyev hikoyalarini o'qir ekanmiz, uning hayotiy real voqealarga asoslanganligi hamda axloqiy jihatdan bolalarga yaxshi ta'sir ko'rsata olishi bilan ajralib turishining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, adibning 1-sinf O'qish darsligida keltirilgan "Chiroyli salom" hikoyasi o'zining tarbiyaviy-axloqiy jihati ustunligi, tili ravon, sodda hamda bolajonlar tilida yozilganligi bilan ajralib turadi. Hikoyada Bobo va nabirasining o'zaro suhbatiga guvoh bo'lamiz. Jajjigina qizaloq bobosiga chiroyli salom berishi uchun apil-tapil yuz-qo'llarini yuvishi va bobosi ketib qolmasidan oldin unga salom

berishga shoshilishi haqida hikoya qilinadi. Hajmi jihatdan juda qisqa berilgan bu hikoyaning zamirida esa juda ulkan ma'no-mazmun berilgan.

Biz o'zbeklarda "Salomingga qarab sening kimligingni aytish mumkin" degan naql bor. "Odob boshi salom", - deb ham xalqimiz bejizga aytmagan yoki biz sevib o'qiydigan ertaklarimizda ko'p uchraydigan jumladan biri ham salom berish bilan bog'liq: Saloming bo'lmaganda seni bir yamlab yutar edim... E'tibor bering-a, salom berishning o'zida qancha hikmat yashiringan...

Biz o'quvchilarni maktabga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlab ularga salomlashish odobini o'rgatamiz. "Assalomu alaykum"- "Sizga salomatlik tilayman" degan ma'noni anglatishini va salomlashganda o'ng qo'limizni ko'ksimizga qo'yib salom berishimiz kerakligini hamda salomlashganda to'liq salom berish lozimligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot beramiz. "Vaalaykum assalom", ya'ni, "Sizga ham sihat-salomatlik tilayman" ma'nolarini o'quvchilarga aytamiz.

Ushbu hikoyada ham nabirasi Niginaning bobosiga choiroyli qilib salom bergani aytiladi. Hikoyada boboning nabirasiga bergan tanbehiga diqqat qiladigan bo'lsak, bobo "salomni ertalab vaqtli turib beradilar" – deydi. Biz shu o'rinda o'quvchilarga salomlashish qoidalarini "qay holatda salom berish mumkin, qayerlarda salom berish mumkin emas" kabi qoidalarni ham uqtirishimiz lozim. Bugungi kunda biz ko'p duch kelgan holatlardan biri yoshlarimizni ko'p holatlarda salom bermasliklari yoki salom berganda to'liq shu jumlani aytmasliklaridir.

Hadisi sharifda bu xususida shunday deyiladi: bir kishi Rasululloh sallolohu alayhi vassallam: "Islomning qaysi amali eng yaxshi" deb so'raydi. Ul zot javob berdilar: "Islomning eng yaxshi amallari bu ochlarga taom berish va tanigan-u tanimagan kishingga salom berishdir". O'quvchilarga salom berishning eng qisqa ko'rinishi "Assalomu alaykum" degan jumla ekanini singdirish nafaqat o'qituvchilarimiz, balki ota-onalarimizning ham vazifasidir. Zero, tarbiya oiladan boshlanadi. Donishmandlarimiz "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shunchalik baxtli yashaydi", deya bejiz aytishmagan.

Biz Safar Barnoyev hikoyalarida ana shunday tarbiya namunalarining guvohi bo'lamiz. Shu boisdan ham o'quvchilarni kitobga bo'lgan mehrini oshirish kunning eng muhim vazifa bo'lmog'i lozim.

Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg'ularini o'tkirlashtiradi, ma'naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi. Shunday ekan, kelajak avlod bo'lgan yosh o'quvchilarga yoshligidan kitob o'qishga mehr uyg'otaylik va ularga namuna bo'laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Adabiyot va san'at madaniyatini rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasi.
2. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori.
3. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi 4789-sonli Farmoyishi.
4. Imom al-Buxoriyning "Hadislar" to'plami.
5. T. G'afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdiyeva O'qish kitobi 1-sinf uchun darslik. T.2018
6. M.Umarova, X. Hamroqulova O'qish kitobi 3-sinf uchun darslik. T. 2016

5A111801 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARIDA IQTISODIY-HUQUQIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

**BuxDU o'qituvchisi (PhD) Z.B.Jalilov,
Bux DU magistranti G.R.Qurbonova**

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, tejamkorlik, mehnatsevarlik, bozor, tarbiya.*

<https://buxdu.uz>